ILMIY AXBOROT

UDK 81.25.8 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a170**

REY BREDBERINING “MARSGA HUJUM” (“THE MARTIAN CHRONICLES”) ASARI BILVOSITA TARJIMASIDA TARJIMA USULLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА И ОСОБЕННОСТИ КОСВЕННОГО ПЕРЕВОДА «МАРСИАНСКИЕ ХРОНИКИ» (“THE MARTIAN CHRONICLES”) РЭЯ БРЭДБЕРИ

TRANSLATION METHODS AND FEATURES OF INDIRECT TRANSLATION IN "THE MARTIAN CHRONICLES" BY RAY BRADBURY

Usmonova Zarina Habibovna[1]

[1]**Usmonova Zarina Habibovna** – Buxoro davlat universiteti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqola tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari,shakllarining nazariy asoslari, turlari va ularning tarjimon tomonidan asar tarjimasida turlicha foydalanilishi, shuningdek, bu jarayonda asar tarjimasining asliyat mazmun-mohiyatini buzmaslik uchun tarjimonning o‘ziga xos uslubiga bag’ishlanadi. Jumladan, Fantastik asarlar tarjimasi nafaqat adabiy, lingvistik, madaniy xususiyatlarni qamrab oladi, balki ular tarjim ajarayonida sohaviy termonologik muhitni yaratadi. Rey Bredberining “Marsga hujum” asari bilvosita tarjimasi shunday asarlar sirasiga kiradi.

Аннотация

Данная статья посвящена уникальным особенностям перевода, теоретическому обоснованию его форм, видов и различному их использованию переводчиком при переводе произведения, а также собственному стилю переводчика, чтобы не нарушать оригинального содержания произведения. перевод произведения в этом процессе. В частности, перевод фантастических произведений охватывает не только литературоведческие, языковые, культурологические особенности, но и создает полевую терминологическую среду в процессе их перевода. Одной из таких работ является непрямой перевод «Марсианские хроники» Рэя Брэдбери.

Abstract

This article is devoted to the unique features of translation, the theoretical substantiation of its forms, types and their various use by the translator when translating a work, as well as the translator's own style so as not to violate the original content of the work. translation of the work in this process. In particular, the translation of fantastic works covers not only literary, linguistic, cultural features, but also creates a field terminological environment in the process of their translation. One such work is an indirect translation of Ray Bradbury's “The Martians Chronicles”.

Kalit so‘zlar: *kalka, adekvat, tarjimon, leksik birlik, grammatik transformatsiya, uslub, tasviriy ifoda, asliyat, muqobil, kalkalash, obrazli tarjima.*

Ключевые слова: *калька, адекватный, переводчик, лексическая единица, грамматическая трансформация, стиль, образное выражение, оригинальность, альтернатива, калькирование, образный перевод.*

Key words: *kalka, adequate, translator, lexical unit, grammatical transformation, style, figurative expression, originality, alternative, doing kalka, figurative translation.*

KIRISH

Taraqqiyot tushunchasi nafaqat moddiy hayotimizda, balki ma’naviy dunyomizda, adabiy sohalarda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, tarjima va tarjimashunoslik sohasi bundan mustasno emas. Bu sohani ham o‘z egalari, ustalari, ro‘yobga chiqaruvchi ijrochilari bor. Bu jarayon vakillari nafaqat tarjima amaliyotini amalga oshiradilar, balki yozuvchi kabi asarni idrok etadilar, qayta yaratadilar. Shuning uchun bu amaliyot murakkab hisoblanadi. Biz bilamizki, tarjima amaliyoti paydo bo‘libdiki, asliyatni ona tiliga qanday o‘girish lozim - so‘zma-so‘zmi yoki erkin tarzdami - degan masala tarjimonlar oldida ko‘ndalang turgan muammo sanaladi. Ayrim shaxslar, masalan, XX asrning boshlarida ijod qilgan san'atkorlar, so‘zma-so‘z tarjimani yoqlab chiqqanlari holda, amaliy faoliyatlarida shu usuldan ko‘proq foydalanib kelgan bo‘lsalar, ko‘pchilik ijodkorlar erkin tarjimani afzal ko‘rib, san'atkor asliyatning harfini emas, ruhi, so‘zini emas, mazmunini, shaklini emas, unda mujassamlashgan axborotni bera bilishi kerak degan nuqtai nazarni olg'a surganlar. Ammo masalani nazariy hal qilish lozimligi hech kimning xayoliga kelmagan. Bunda tarjimon ulushi qanday ahamiyat kasb etadi degan savol hammani qiynaydi. “Tarjimon xuddi talantli yozuvchi kabi katta hayot tajribalariga ega bo‘lganidagina, uning tarjimadagi so‘zi yozuvchi so‘zidek tiniq, shirali, aniq-ravshan chiqadi. Bunda Navoiyning o‘sha mashhur “ravshan alfoz va ochuq ado”

haqidagi benihoya oqil so‘zi yoddan chiqmasligi kerakka o‘xshaydi.” [15] Shu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, asarni boshqa tilga o‘giruvchi xuddi yozuvchi kabi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to‘g‘risida keng tasavvurlar va fantaziya qobiliyatiga ega bo‘lgandagina, qobiliyat teran bilimlar bilan quvvatlangandagina uning ijodi ishonchli, tushunarli, yuksak badiiy ifodaviylik va ta’sirchanlik kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xususan, tarjimon oldida turgan vazifa hayot haqidagi bilimlarning chalaligi va jo‘nliligi, asliyat asari va uni yaratgan adibning tarjimayi holi, ijodiyoti, badiiy uslubi ijodiy-xayotiy qarashlarini tugal o‘rganmaslik va bilmaslik, asliyatasari atrofidagi fikr-mulohazalar, bahslardan bexabarlik – hech shubhasizki, “tarjimaning umumiy badiiy sifat darajasiga qattiq salbiy ta’sir ko‘rsatadi”. [16] Tarjima haqida fikr borarkan, biror manba yo‘qki, unda tarjimaning asl nusxaga nomuvofiqligi tilga olinmagan bo‘lsin. Bu haqda mashhur o‘zbek tarjimoni G’aybulla Salomov shunday degan: “Tarjimon ko‘pincha “qoidasiz o‘yinda qatnashganlikda”, “Hijjalab o‘tirganlikda”, “asl nusxaning faqat ruhini berishga intilganlikda”, “ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirganlikda” ayblanib, ming ta’na dashnomga giriftor qilinadi.” [17] Shuning uchun ham bu nozik va juda mashaqqatli jarayon.Har qanday mohir tarjimon tarjimaga kirishmasdan burun tarjima qilinadigan asarni har tomonlama o‘rganish, uning lug‘ati va badiiy xususiyatlari ustida oldindan ish olib borish, asarning ichki tuzilishi, obrazlari, qahramonlar harakat qilayotgan ijtimoiy-tarixiy muhit, badiiy tasvir vositalari, uslubi haqida o‘ziga xos material, ma’lumotnomalar tuzish tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratadi.Yozuvchi yangi asar yozish uchun qanday izchillik bilan material yig‘sa, tarjimon-yozuvchi ham shunday material to‘playdi, asar va uning muallifi haqida o‘z ma’lumotnoma daftarini yaratadi.Ushbu muhim xususiyatlarni o‘rganib turib, tarjimaning maqsadi bu kitobxonning saviyasi va didi, matn turi kabi qator masalalar muhokama kun tartibiga qo‘yilmagan. Nazariy asosning ishlanmaganligi tarjima jarayoniga turlicha yondashishni keltirib chiqargan. [18] Bu, o‘z navbatida, qator tarjima turlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lganki, ularning ayrimlari “ijodiy-ilmiy, ba'zilari illatli”[19] deb tan olinadi.

Aslida asarni bir tildan ikkinchi tilga muqobil bir maqomda o‘tkazish tarjimondan chuqur bilim, katta mahorat, og’ir mehnat talab qiladi. Shu o‘rinda masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Bu keng kitobxonlar ommasining estetik didi, saviyasi,yuksak madaniy, intelektual talab va ehtiyojlari, aqliy taraqqiyot darajasini, bir so‘z bilan aytganda, hisobga olishdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko‘rinib turibdiki, tarjimaning tili va uslubi kitobxon hamda zamon talablariga to‘la javob berishi dolzarb, shu tufayli so‘z ustalari, goh orginal asar, goh tarjima bo‘lsin, o‘z asarlarining tili va uslubiga doim sayqal berib boradilar. Masalan, mahoratli tarjimonlarimizdan biri Amir Fayzulla bilvosita tarjimasiga mansub Rey Bredberining “Marsga hujum” asari aynan fantastik xayolot, kosmik dunyo, aql bovar qilmaydigan lavhalar bilan sug’orilgan. Tarjima asardagi ayrim terminlar asliyatdan uncha farq qilmasada, ayrim tarjima xususiyatlaridan lingvo-madaniy va lingvo-psixologik muvofiq va nomuvofiqlikni ko‘ramiz.

Biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan fantastik asar benihoya aql bovar qilmaydigan lavhalarga, voqea-hodisalarga,shuningdek, olis sayyora – Marsga sayohatni tasvirlaydi. Tahlilga tortish jarayonida nafaqat fantastik asarning aslini, balki ruschadan bilvosita tarjimasida tarjimonning mahorati, uslubi, usuli kabi masalalar yoritildi. Shu o‘rinda tarjimon Amir Fayzulla asar xususiyati haqida gapirar ekan, u shunday deydi: “*Rey Bredberi quvvai zehni bilan olis-olis galaktikalarga xuddi fazogirlarday “sayohat” qiladi va mo‘jizaviy taassurotlarini jahon ahli bilan baham ko‘radi.*

Muallifning fantastika vositasida bunday g'aroyib “sayohat”lari zamirida ulkan majoziy ma'no yotadi — u Yerdagi hayot, xususan ona tabiatga munosabat allaqachon izdan chiqqanligini alam, o‘kinch va zaharxandalik bilan ifoda etadi. Hatto biz shaffof marsliklar istiqomat qiladi deb tasavvur

[15] I.G’ofurov,O.Mo‘minov,N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti. – Toshkent, 2012. – B.116

[16] I.G’ofurov,O.Mo‘minov,N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti. – Toshkent, 2012. – B.117

[17] Ғ.Саломов. Таржима санъати. Мақолалар тўплами. – Т.: “Фан”, 1993. – Б.88

[18] Usmonova Zarina Habibovna. (2022). TRUTH AND FAIRNESS IN “THE DEAD ZONE” BY STEVEN KING’S. Open Access Repository, 8(1), 77 80. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZH3MJ

[19] Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Т., 1973. – Б.116

etganimiz Mars sayyorasini ham mana shu odamlar allaqachon boshiga yetib bo‘lganini alohida uqtiradi. Bu esa Yerdagi har bir odamni chuqurroq o‘ylashga, hushyor bo‘lishga da'vat etadi.”[20]

Tarjimon asarni tarjima qilar ekan, asliyat ruhini, tasvirini saqlashda nechog’lik saqlab qolganini biz, albatta, har uch tildagi shu asar namunasini qiyoslab ko‘ramiz. Birgina Rey Bredberi asar boshida tasvirlab bergan “*Rocket summer*” rus tilidagi tarjimasida “Рокетное лето” o‘zbek tilidagi bilvosita tarjimada (“Raketa yozi”) aynan voqealar ramziy tus olgan, Mars sayyorasida bo‘lib o‘tgan xayoliy, fantastik lavhalar o‘rin olgan.

Tarjimon Amir Fayzulla ushbu fantastik asarni tarjima qilar ekan, shu o‘rinda adekvat tarjimadan foydalangani, bu tur tarjima – (rus tilida “адекватное”, o‘zbekchada “tenglashtirish”, “teng,to‘la mos keladigan”, “bir-biriga mutanosib” ma’nolarini anglatadi (tarjimaning asliyatga mos kelishi nazarda tutiladi) ya’ni aynan o‘xshagan tarjima tushiniladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, asl nusxani to‘liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjima deyiladi.[21]Boshqa manbalarda bu haqida turlicha fikr-mulohazalar mavjud. “Adaptatsiyali tarjima-(lot.adaptatio; yengillashtirish,soddalashtirish)asliyatdagi asar yoki boshqa matnning asosan syujet chiziqlariga urg’u berib,uning ma’no va uslubiy jihatlarini e’tirofdan qochirish orqali soddalashtirilgan holda amalga oshirilgan tarjima.”[22] Amir Fayzulla Rey Bredberining “Marsga hujum” asarini rus tilidan bilvosita tarjima qilar ekan, asar boshidagi qismlarida o‘zbek tilidagi bilvosita tarjimasini tahlilga tortar ekanmiz, unda ba’zi so‘zlar adekvat tarjima, ba’zi o‘rinlarda esa kalka usulidan foydalanilganini guvohi bo‘lamiz. Asl nusxada: “*Rocket summer. The words passed among the people in the open air, airing houses. Rocket summer. The warm desert air changing the frost patterns on the windows, erasing the art work. The skis and sleds suddenly useless. The snow, falling from the cold sky upon the town, turned to a hot rain before it touched the ground.”*[23]Bevosita rus tilidagi tarjimasida tarjimon tarjimaning kalka usulidan foydalangan, kalka usulida so‘z yoki so‘z birikmasini harfma-harf (hijjalab) tarjima qilish bilan o‘girish anglashiladi. Uning quyidagi turlari bor: 1.Leksik kalka-tarjima tilida asliyatdagi qoidalar bo‘yicha yasalgan so‘z. 2.Sematik kalka-so‘zning chet tilidagi ma’nosi ta’siri bilan paydo bo‘lgan ifodasi.3.Frazeologik kalka-chet tilidagi birikmani qismlarga bo‘lib hijjalab (harfma –harf) tarjima qilish. Shunda rus tilidagi bevosita tarjimada:“*Ракетное лето. Из уст в уста с ветром из дома в открытый дом – два слова: Ракетное лето. Жаркий, как дыхание пустыни, воздух переиначивал морозные узоры на окнах, слизывал хрупкие кружева. Лыжи и санки вдруг стали не нужны. Снег, падавший на городок с холодного неба, превращался в горячий дождь, не долетев до земли.”*[24]Tarjimon rus tilidagi asar tarjimasida frazeologik kalka turidan foydalangan bo‘lib*, “The words passed among the people in the open air, airing houses.”* gapi tarjimada *“Из уст в уста с ветром из дома в открытый дом – два слова”* birliklar asal tili va asar tarjima qilingan til madaniyati bilan bog’liq frazeologik birliklar bilan tarjima qilingan. Bilvosita o‘zbek tilidagi tarjimasida esa, “*Ракета ёзи. Оғиздан-оғизга, уйдан-уйга шу икки сўз кўчиб юрар эди: Ракета ёзи. Худди чўл нафасидек қайноқ ҳаво деразалардаги муз нақшларни эритиб юборди, улар ўрнида нафис каштапар сузилиб кўринди. Чанғи ва конкилар бирдан керак бўлмай қолди. Аёзли осмондан тепалик устига қўнаётган қор ергача келмай, ҳаводаёқ қайноқ ёмғирга айланмоқда эди.”*[25]bunda tarjimon rus tilidagi muqobiliga murojaat qilib, leksik kalkadan foydalangan, so‘zma-so‘z tarjima qilib, ayrim o‘rinlarda o‘zbek tilidagi lingvomadaniy tus ham bergan, bu esa o‘zbek kitobxoniga aynan o‘sha so‘z yoki ibora tushunarli bo‘lishi va tushunishi uchun qulaylik yaratish edi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shu aytish mumkinki, tarjimon va asliyatdagi asarning tarjima jarayonida qayta tug’ilishi, shuningdek, tarjimonning tarjima turlari va usullaridan foydalanishi tarjima jarayoni

[20] Рэй Брэдбери, “Марсга ҳужум”.”Янги аср авлоди”, – 2016 йил. – Б.2

[21] Termiz Davlat Universiteti o‘qituvchisi, Akademiya NTM rahbari,tarjimon,ilmiy izlanuvchi Solijonov Juraali Kamoljonovich.Tarjimashunoslik fanidan ma’ruza matnlari. – T. ,2018. – B.28

[22] J.K.Solijonov “Tarjimonlarga tavsiyalar 1-5-qismlar”. – T., 2016. – B. 35

[23] Ray Brudbury. The Martian Chronicles. Voyager, An imprint of HarperCollinsPublishers, London Bridge Street, London SE1 9GFCover layout design © HarperCollins, Publishers 2014, P.4

[24] Р. Д. Брэдбери. «Марсианские хроники». © Издание на русском языке, оформление. ООО «Издательство «Эксмо», 2013Ст. 6

[25] Рэй Брэдбери, “Марсга ҳужум”.”Янги аср авлоди”, 2016 йил, Б.3

uchun juda muhim vosita hisoblanadi. Zero, tarjima jarayonida tarjima usullaridan foydalanish juda muhim, tarjima usullari tarjima sifatini oshirish va asliyat tilidan tarjima qilinayotgan tarjimaning asl ma'no-mazmunini saqlab qolish uchun yordam beradi. Tarjima sohasida ish olib borayotgan har bir tarjimonning tarjima turlari va tarjima usullaridan xabardor bo'lishlari juda muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. G'ofurov I.,O.Mo'minov,N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti. – Toshkent, 2012. – B.117
2. Саломов Ғ. Таржима санъати. Мақолалар тўплами. – Т.: "Фан", 1993. – Б.88
3. Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Т., 1973. – Б.116
4. Рэй Брэдбери, "Марсга ҳужум"."Янги аср авлоди", – 2016 йил. – Б.304
5. Termiz Davlat Universiteti o'qituvchisi, Akademiya NTM rahbari,tarjimon,ilmiy izlanuvchi Solijonov Juraali Kamoljonovich.Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – T. ,2018. – B.28
6. Solijonov J.K. "Tarjimonlarga tavsiyalar 1-5-qismlar". – T., 2016. – B. 35
7. Ray Brudbury. The Martian Chronicles. Voyager, An imprint of Harper Collins *Publishers,* London Bridge Street, London SE1 9GFCover layout design © HarperCollins, *Publishers* 2014, P.304
8. Р. Д. Брэдбери. «Марсианские хроники». © Издание на русском языке, оформление. ООО «Издательство «Эксмо», 2013 Ст. 304
9. Usmonova, Z. (2022). СТИВЕН КИНГНИНГ "ЎЛИК МИНТАҚА"("DEAD ZONE") АСАРИДА «THE LAUGHING TIGER» ("СМЕЮЩИЙСЯ ТИГР") ОБРАЗ ТАЛҚИНИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 12(12). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6364
10. Usmonova Zarina Habibovna. (2022). TRUTH AND FAIRNESS IN "THE DEAD ZONE" BY STEVEN KING'S. Open Access Repository, 8(1), 77–80.https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZH3MJ
11. Toshnazarovna, E. M. (2022). ALLUSIONS TO HISTORICAL CHARACTERS AND EVENTS IN THE NOVEL BELLEFLEUR BY JOYCE CAROL OATES. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(1), 274-277. http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/861
12. Erkinovna, Y. F. Negative Politeness. Journal of Critical Reviews, 7(6), 1249-1255. https://media.neliti.com/media/publications/344146-negative-politeness-c55f7abc.pdf.
13. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2021). POLITENESS MARKERS IN SPOKENLANGUAGE. Euro-Asia Conferences, 37–40. Retrieved from http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/528.
14. Sanjar Saliyevich Kurbanov, Mohigul Ramazonovna Saparova BADIIY ASAR JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA QARG'ISH ANGLATUVCHI DISFEMIZMLARNING PERSONAJLAR NUTQIDA BERILISHI // Academic research in educational sciences. 2021. №4. https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asar-jozibadorligini-oshirishda-qarg-ish-anglatuvchi-disfemizmlarning-personajlar-nutqida-berilishi